

Choriyeva Gulchehra Umbar qizi

ChDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Shermatova Umida Sapayevna

ChDPU gumanitar fanlar fakulteti,

o'zbek adabiyotshunosligi kafedراسi

filologiya fanlari doktori, PhD

Annotatsiya: *ushbu maqolada Piskent tumanining kelib chiqish tarixi, toponimlari, shu zaminni dunyoga tanitgan avliyolar haqida so'z yuritiladi. Toponimlar bilan bog'liq yangi topilgan afsona va rivoyatlar haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *Piskent, Shosh, Iloq davlati, Bo'rijar, Bobog'oziy Turkdog'on Buva, Hasti Buzruk ota, Parpi ota, Mingtepa.*

Inson o'z tug'ilgan yurtini tanimay turib boshqa joyni bilmaydi, deyishadi. Aslida ham shunday. Ushbu maqolada Piskent tumani tarixi, toponimlari, shu zamindan chiqqan avliyolar haqida so'z yuritmoqchimiz.

Piskent – Toshkent vohasining eng qadimiy sharharlaridan biri. X asr geograflarining ma'lumotlariga ko'ra, u Iloq davlati tarkibiga kirgan. Vasiliy Bartold va Mixail Masson Piskentni Ohangaron daryosining chap sohilidagi yodgorlik qoldiqlari bilan aynan bir deb ko'rsatadilar. Piskentdan I asrga mansub qabristonlar va V asrga oid novuslar topilgan.

Markaziy yo'llar Piskentni Toshkent, Ohangaron, Olmaliq va boshqa shahar, tumanlar bilan bog'laydi. Piskent shahri yaqinida Toshkent suv ombori joylashgan. Piskentning dastlabki o'rni Pushti Muhammad tepaligi bo'lib, u VI-VII asrlarda shahar shakliga kira boshlagan. X-XII asrlarda ravnaq topgan. Shosh (Toshkent)dan Farg'onaga o'tgan savdo yo'lining ustida qulay joylashganligi

tufayli IX-X asrlarda bu yerda qadimgi tarixchilar tomonidan Biskat deb atalgan shaharcha paydo bo'lgan.

XII asr boshida mo'g'ul bosqinchilari Piskentni vayron qilganlar. XII asr o'rtalarida uning g'arbiy chekkasi yana tiklangan bo'lsa-da, shahar kichrayib, qishloq darajasiga tushib qolgan. XIV-XVI asrlarda Piskent temuriylar va boshqa hukmdorlar mulki tarkibiga kirgan. XVII asr oxiri va XVIII asrda shahar yana inqirozga uchraydi. Aholisi g'arb tomonga ko'chib o'tadi. Piskentning XIX asrda mudofaa devorlari va 4 ta darvozasi bo'lgan. O'sha davrda Piskent Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan.

Pavel Lure o'z tadqiqotlarida Sirdaryo daryosini Yaksard deb atagan bo'lsa, Ohangaron daryosini Baskates - Piskent daryosi deb ataydi, chunki daryoning katta qismi Piskent tumani hududidan oqib o'tadi.

Toshkent viloyati toponimlarini o'rgangan olim Akmal Abdullayev Piskent nomining kelib chiqishini tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tadqiq etib, quyidagi rivoyatni keltiradi: "Bobur Hindistonga yurishini boshlashidan biroz oldin uning qo'shini Piskent tumaniga kelib to'xtaydi. Bu yerda shoh yigirma kanizagini yigirma nafar xizmatkoriga nikohlab beradi. Bobur Hindistonga yo'l olgach, yigirmata yosh oila shu yerda qoladi va Piskent (forscha "bis" - yigirma, "kent" – qo'rg'on) vujudga kelishiga sababchi bo'ladi"[1,876].

Biz kekxa avloddan Piskent toponimi bilan bog'liq quyidagi rivoyatni yozib oldik:

Bir fors amaldori lashkari bilan Ohangaron daryosi bo'ylab o'tib ketayotganida aholisi zich yashaydigan, obod joyni ko'radi. Qiziqib: "Bu qanday joy, nima deb ataladi?" - deb so'rganida hamma har xil javob beradi: aholisi o'troq yashaydi, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Hisoblab chiqishsa, yigirmatacha qo'rg'on, hovli-joy turgan ekan. Shunda amaldor: "Bu joy Biskent (Biskat) ekan", - deydi. Fors tilida "Bis" - yigirma, "kat, kent"-shahar, qo'rg'on degani. "Kat" so'zi shahar ma'nosida Beruniy asarlarida ham uchraydi. Biskent, Biskat nomlari keyinchalik, turkiy talaffuz qoidalariga moslashib, Piskent ko'rinishiga kelgan.

Hududdagi tarixiy joy nomlaridan biri Bo‘rijardir. Bu toponim aslida “ulkan, katta jar” degan ma’noni bildiradi, lekin mahalliy xalq tushunchasida “bo‘rilar yashaydigan jar” ma’nosi yetakchilik qiladi[2,18]. Bo‘rijar bilan bog‘liq ma’lumotlarni, asosan, insonlar og‘zidan yozib oldik. Aytishlaricha, bir paytlar Bobur qo‘shini bilan Andijondan Toshkentga yo‘lga chiqqanida aynan Bo‘rijar yo‘li bilan chiqib kelgan ekan. Jarning o‘zani qurib qolgan joylarda odamlar muqim yashay boshlaganlar, dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. 1986- yilda u yerda elliktdan ortiq xonadon istiqomat qilgan. Ammo aynan mana shu yili o‘zan toshgan va jar ichini yuvib ketgan. Bir rus millatiga mansub bola suvning shiddat bilan shovullab kelayotganini sezgan hamda miltiq otib odamlarni uyqudan turg‘izgan. Parpiyevlar oilasidan boshqa hamma omon qolgan. Bu toshqinni yaqindan ko‘rgan insonlarning hikoya qilishicha, jar suv bilan to‘lgan, suvning yuziga beshiklar, ko‘rpa-to‘shaklar qalqib chiqqan. Uzun-uzun teraklarning faqat uchi ko‘rinib turgan. Shunda yoshi ulug‘lar qurigan o‘zanga har 40 yilda suv qaytishi ehtimoli borligini aytib o‘tishgan. Shu dahshatli tabiiy ofatdan keyin Bo‘rijar hududida odamlarning uy-joy qurib yashashiga ruxsat berilmagan.

Tumanda bir nechta ko‘zga ko‘ringan qadamjolar mavjud. Shulardan biri – Bobog‘oziy Turkdog‘on Buva ziyoratgohidir. Turkdog‘on Bobo XI asrda yashagan va Toshkent hokimi hisoblangan. Madina shahrida joylashgan tarix muzeyida barcha avliyolarning ro‘yxati keltirilgan. Shu ro‘yxatda Turkdog‘on Bobog‘oziy avliyo sifatida yozib o‘tishgan va uning qabri haqida ma’lumot berilgan[4].

Tarixiy qadamjoldan yana biri – Hasti Buzruk ziyoratgohi hisoblanadi. Bu insonning asl ismlari Mansurbob Arslon Bobo o‘g‘li bo‘lib, Ahmad Yassaviyning birinchi shogirdi ularni Piskentga jo‘natgan. Shundan so‘ng Turkdog‘on Bobog‘oziy poytaxtni Shoshdan Piskentga ko‘chirgan. Hasti Buzruk otaning ikki o‘g‘li bo‘lgan. Bular Shodmalik ota va Hasanboy otalardir (Toshkentda joylashgan Hasanboy degan joy nomi aynan shu inson bilan bog‘liq). Bu insonlar ham el ichida avliyo sifatida tan olinishgan. Shu sababli ismlariga Hasti Buzruk nomini qo‘shib aytishgan. So‘nggi ziyoratgoh - bu Parpi ota

ziyoratgohidir. Yashagan yillari 1700-yillar deb taxmin qilinadi. Asli vodiylilik boʻlgan, lekin shu yerga kelib avliyolik qilgan.

Piskent tumanida joylashgan Mingtepa Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning koʻchmas mulk obyektlari milliy roʻyxatiga kiritilgan – davlat muhofazasiga olingan. Bu arxeologiya yodgorligi mil. av. V asrga tegishli deb qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, Piskent tumaniga oid maʼlumotlar shu bilan chegaralanib qolmaydi. Tumandagi har bir qishloq, tepalik, ariq va jarlikning nomi bilan bogʻliq afsona va rivoyatlar mavjud. Oliygozlarda talabalardan iborat ilmiy-tadqiqot guruhlarini shakllantirilib, ular ishtirokida hududlardagi toponimlar, gidronimlar tarixi rejali oʻrganilsa, shuningdek, xalq xotirasida saqlanayotgan qimmatli dalillar, asotir-u afsonalar yigʻilsa, shubhasiz, tariximiz, tilimiz va folklorimiz yangi maʼlumotlar bilan boyigan boʻlar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdullayev A.A. Toshkent viloyati shaharlari urbanotoponimlarining tarixiy etimologik aspektida lingvomadaniy tadqiqi haqida. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021-p.874-879
2. Nafasov T., Nafasova V. Oʻzbek tili toponimlarining oʻquv izohli lugʻati.-T.: Yangi asr avlodi, 2007.
3. Sulton Murod Olim “Piskentmi yoki Biskent” // “Toshkent haqiqati” gazetasi, 2008.
4. Toshkent viloyati tamaddun tarixi va taraqqiyot istiqbollari. – Toshkent, “Maʼnaviyat”. 2014.
5. uz.m.wikipedia.